




TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 42 (66323)
2001 yil 19 oktyabr, juma


Sotuvda erkin narxda

TINCHLIK ISTAR BOLALAR

O'zbekistonimiz shunday bir ajib gulshanki, uning ko'rki va muattar bo'yidan bunda yashaydigan barcha millatlar bahra oladilar. Lekin yurtboshimiz «Qo'shning tinch, sen tinch» deya ta'kidlaganlaridek, Afg'onistondagi notinchlikdan biz ham xavotirdamiz. Shuningdek, 11 sentyabr kuni AQSHda sodir etilgan terrorchilik harakatlaridan ham dilimiz larzaga keladi. Bu mudhish voqealar sabab, qanchadan-qancha begunoh odamlar hayotdan bevaqt ko'z yumdilar. Ana shu xunrezliklar oqibatida, usiz ham jaf chekib kelayotgan afg'onistonlik tengdoshlarimiz hayoti tahlika ostida qoldi. Ularga insonparvarlik yordami ko'rsatish har birimizning muqaddas burchimiz deb bilaman.

Dunyoda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni kuzatar ekanmiz, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikka yana bir bor shukronalar aytamiz. Shuningdek, uning qadriga yetish lozimligini, ogoh bo'lib yashashimiz, uyimiz, mahallamiz, maktabimiz, qo'yingchi, Vatanimizni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz kerakligini unutmaylik.

Samixa MIRZAMUHAMEDOVA,
Toshkent Pedagogika kolleji talabasi.



Дунё катта чаман бўлсин,
Очилсин гул-лолалар.
Урушларнинг номи ўчсин,
Тинчлик истар болалар.

Ustozimiz Muqaddas opa Yusufxo'jayeva 2-sinfidan buyon har shanbada sinfdan tashqari bir soatlik «Siyosiy o'qish» darsini tashkil qilganlar. Biz hafta davomida «Axborot», «Davr» ko'rsatuvlarini kuzatib, o'zimizni qiziqtirgan yangiliklarni yozib boramiz. Muqaddas opa: «Shu tariqa fikrlash qobiliyatingiz kengayadi, nutqingiz ravon bo'lib, bexato yozishni o'rganasizlar», -deydilar.

Hozir 4 - sinfda o'qiyapmiz. Bu odatiy mashg'ulotimizni kanda qilganimiz yo'q.

Bu haftada o'tkazilgan siyosiy darsimiz o'zgacha bo'ldi. Yurtboshimizning shu yil 5 oktyabrda qilgan Bayonoti haqida fikrlashdik. «O'z uyingni o'zing asra!» degan gaplarini o'zimizga shior qilib oldik.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118 - maktab o'quvchisi.

НАММА ШАНБАЛТКА!

Men o'qituvchiman, demakki, bolalar ta'lim- tarbiyasi uchun mas'ulman. Shuningdek, biz murabbiylar yosh avlodning sog'lom va barkamol ulg'ayishlari uchun ham ma'lum ma'noda javobgarmiz. Ana shu mas'uliyatni chuqur his qilgan holda Sirg'ali tumanidagi 322 - maktabimizda turli mavzularda tadbir va yig'ilishlar o'tkazib turamiz.

Yaqinda «Ma'naviyat va ekologik ta'lim - giyohvandlikka qarshi kurashda» mavzuida o'tkazgan yig'ilishimiz yoshlarimiz orasida oz bo'lsa-da uchrab turadigan giyohvandlik illatining oldini olishga qaratildi.

Yig'ilishda Sirg'ali tuman prokurori yordamchisi R.Jakbarov, tuman ma'naviyat va ma'rifat markazi raisi, shoira Zulfiya Mo'minova, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi Sirg'ali tumani bo'limi direktori D.Musaboyev, maktab rahbariyati, o'quvchilar va o'qituvchilar ishtirok etdilar. Maktabimiz direktori N.B. Tursunova so'z olib, hozirgi kunda giyohvandlikka qarshi olib borilayotgan kurash, uning inson hayotiga, salomatligiga zarari, butunjahon giyohvandlikka qarshi kurash kompaniyalarining faoliyati, bugungi kunda adabimning asosiy maqsad va vazifalari haqida gapirdilar. Yig'ilganlar shuningdek, R.Jakbarov va

Z. Mo'minovaarning «Ma'naviyat va ekologik ta'limning yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashdagi vazifalari» mavzuidagi ma'ruzalarini ham diqqat bilan tingladilar. D.Musaboyev hamda maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari G.Turg'unovanning hozirgi kunda yer kurrasidagi ekologik ahvol, uni yaxshilashda yosh avlodning roli, bolalarning ekologik madaniyati va saviyasini oshirish borasidagi asosiy vazifalar va bu borada «Ekosan» xalqaro jamg'armasi tomonidan olib borilayotgan xayrli ishlar xususidagi chiqishlari bahs va munozaralarga boy bo'ldi. Kasalni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul, deganlaridek so'zga chiqqanlar giyohvandlik va uning oqibatlari to'g'risida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, bu ishlarga yoshlarni ko'proq jalb qilish, ularni foydali mehnat bilan band etish lozimligini alohida ta'kidlashdi, o'quvchilarning ko'plab savollariga javob berishdi.

Yig'ilish so'ngida 20 oktyabr kuni «Ekologiya va salomatlik» shanbaligini o'tkazishga, unda barcha o'qituvchi va o'quvchilar faol ishtirok etib, maktabimiz va uning atrofini obodonlashtirishga, bir necha tup kuzgi ko'chatlardan ekishga kelishib olindi.

Nasiba TURDIQULOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322 - maktab o'qituvchisi.

ЗИРАРСНА

Ўтган 2000 йилимиз юртбошимиз томонидан «Соғлом авлод йили» деб, мазкур йилимиз эса унинг бевосита давоми сифатида «Оналар ва болалар йили» деб эълон қилингани ҳаммамизга аён. Шу муносабат билан республикаимиздаги кўплаб мактабларда ўқувчиларнинг спорт билан мунтазам шуғулланиб, соғлом ва баркамол улғайишлари учун шарт-шароитлар яратилди. Биз, яъни Янгийўл туманидаги 2 - ўрта мактаб ўқувчилари эса буларни кўриб фақат ҳавас қиламиз, холос. Тенгдошларимизнинг спорт соҳасида қўлга киритаётган ютуқларидан қувонамиз, мактабимиздаги аҳволни кўриб кайфиятимиз тушиб кетади...

Тўғри, дарс жадвалимизда жисмоний тарбия дарслари мавжуд. Аммо у фақат оғиздагина ўтилади. Дарсларда жисмоний машқлар билан машғул бўлиш ўрнига, қўл ушлашиб мактаб атланиб юрамиз. **БЕКЎРЧИЛИК ДАРСИ**

рофида ай-
Ўғил болалар эса
бўлсагина футбол ўйна-
шади, бўлмаса, 45 дақиқалик
«бекорчилик дарси»да зеркиб юраве-
ришади. Бунга сабаб мактабимизда жисмоний тарбия ўқитувчисининг йўқлигидир. Ҳадемай кунлар совиб, ёғингарчиликлар бошланса, бу кунимиз ҳам ҳолва бўлиб қолади. Жисмоний тарбия учун ажратилган соатларни тоmidan чакка ўтиб, поллари шилта бўлиб кетган, иситиш мосламалари бўлмаган спорт залимизда ўтказишга мажбур бўламиз. Бу ҳол анча вақтдан буён давом этиб келмоқда.

Ўйлай-ўйлай сеvimли газетамиз «Тонг юлдузи» орқали мута-
садди амакиларга мурожаат қилишга қарор қилдим. Зора, мақо-
ламни ўқиб, бизнинг мактабимизга ҳам биров эътибор берсалар.
Ахир биз ҳам спортга қизиқамиз, соғлом ва бақувват бўлиб ка-
мол топишга ҳақлимиз-ку.

Феруза ОБИДОВА,
Тошкент вилояти,
Янгийўл туманидаги
2 - ўрта мактаб ўқувчиси.

ONA TILIM

Navoiy bobomiz ulug'lagan til,
Ne-ne quzg'unlarga yemish bo'lding sen.
Shunda ham o'z qadring saqlab qololding,
Ona tilim deya e'zozlayman men.

Yetmish yil tutqunlik zahmini chekib,
Ko'p yillar toptaldi yuksak g'ururing.
Nihoyat yurtimda o'z qadring topding,
Yana sayqallandi, sha'ning, shuuring.

Xalqimga qaytganing muborak bo'lsin,
Faxr-la shodlikka to'ladir dilim.
Bugun qadring baland, e'zozdadirsan,
Dunyo sarhadiga yo'l olgan tilim.

Mahfuza ORTIQOVA,
Shayxontohur tumanidagi 157 - o'rta
maktabning 9- «B» sinf o'quvchisi.

K u z . . .
Quyoshning jonsizgina
nur sochishi-yu kunning
sekin asta qisqarishi
kuzning

KUZ HAQIDA O'YLAR

ziynatidir. Har gal
kuz fasli kelganda men
uyimizning yonidagi tepalikka chiqaman-
da, o'z qishlog'imni tomosha qilaman. Oh, bu
go'zallikni ko'rsangiz edi. Go'yo mening qishlog'imdan
go'zal joy hech qayerda yo'qdek...

Hozir sizlarga qishlog'imni tasvirlab berishga harakat
qilaman. Do'ppidek qishlog'imga boqsangiz avvalo torgina
ko'chalar ko'rinadi. Paxta terimchilari qaytmoqda.
Bobodehqon poliz ekinlarini aravaga ortib, uyiga
tashimoqda. Jajji ukajonu singilchalarim arava ortidan
yugurmoqda. Bobodehqon ularga tarvuz ulashdi.
Bolalarning xursandchiligi qishloqqa taralib ketdi.
Akajonlarim yerlarni shudgor qilish bilan ovora. Hozir
bizning qishlog'imizga mehmonga borsangiz, dasturxon
kuzgi polizlaru mevalar bilan liq to'ladi. Ha, aytgandek,
daraxtlarni aytmayisizmi, ular oltin tusga kirgan. Ana, bolalar
mol, qo'y-qo'zi haydab o'tmoqda. Hozir traktorning tirillashi,
qo'y-qo'zilarining ma'rashi, qizdirilgan tandiru issiq nonlar
isi, bolalarning quvnoq qiyqiriqlari avj olgan. Ha, qishlog'im
ana shunday go'zal.

Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi
59- maktab o'quvchisi.

Barcha yurtdoshlarim qatori har bir shahar
va qishloqlarda bo'layotgan o'zgarishlardan,
bunyodkorlikdan qalbim nurga to'ladi.
Vatanimga bo'lgan mehr-muhabbatim yanada
ortib boradi. Nima qilsam yurtimga ko'proq
foydam tegadi, deb o'ylayman.
Yurtboshimizning bizga qilayotgan
g'amxo'rliklariga javoban yaxshi ta'lim
olishimiz uchun litsey va kollejlari, har
tomonlama dam olishimiz uchun
oromgohlar, sport majmualari, yoshlar
uchun kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining
tashkil etilishi ham biz yoshlar uchun
berilayotgan g'amxo'rlik namunasidir. Biz
bunga javoban puxta bilim olishga, hunar
egallashga harakat qilishimiz joiz. Chunki
bugungi bilim poydevori ertaga buzilmas
qalqon bo'lib xizmat qiladi o'zimizga.
Kelajakda mustaqil davlatimizning ravnaqi
uchun munosib hissamizni qo'sha oladigan
yoshlar bo'lib yetishaylik.

Nigora NAZAROVA,
Namangan viloyati,
Namangan tumani.

DIL IZHORI

Bugun ozod yurtimda yana bir
tong otdi. Quvonchlarim cheksiz.
Hali maktabga borishga erta bo'lsa-
da otlandim.

Sinfga kirib borganimda mendan
ham ertaroq kelgan sinfdoshlarim
talaygina ekan. Ular ham men kabi
bir kunda maktabimizni,
sinfdoshlarimizni, ustozlarimizni
sog'inib qolganga o'xshaydilar. Ular
bilan hol-ahvol so'rashganimda
yana bir quvondim. Shirin so'zlari,
mehrlil ko'zlari meni o'zlariga tortar
edi.

Bizning mana shunday ahil, do'st
bo'lishimizga albatta mehribon
ustozlarimiz sababchidir.
O'qituvchilarimiz do'stlik, birodarlilik
haqida ko'p gapiradilar. Bilimdon
bo'lishimizni xohlaydilar.

**Bergan har saboqlarin,
O'rganamiz biz tinmay.
Hikmatga boy so'zlarin,
Eshitamiz erinmay.**

**Gulruh
XUDOYBERDIYEVA,**
Navoiy viloyati, Navoiy
tumanidagi Xursand Egamov
nomli maktabning 10- sinf
o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



JOYINGIZ - JANNATDAN

Ha, sevimli yozuvchimiz **BOLSHIN**
A.Qodiriy aytganlaridek:
«Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir».
Albatta, o'timishsiz - kelajak yo'q. Men ham
ushbu yurak dardlarimni Muhtarama
momomning ruhi-poklariga bag'ishlayman.
Muhtarama momom qishlog'imizning
qizlariga oppoq sur matoga turli xil
manzaralarni kiritib, inson qalbidan joy
oluvchi katta sirlarini o'rgatganlar,
ko'ylaklar bichib tikishdan voqif etganlar.
Shu bois, onajonim hamda xolalarim ham
ana shunday hunar sohibasi bo'lishga
muyassar bo'lganlar. Momomda san'atga
xos chanqovuz asbobi bo'lib, uni juda
yaxshi chalar ekanlar. Uning kuyini eshitish
uchun uyimizga momomning dugonalari
jam bo'lishgan damlari ko'p bo'lgan.

Ba'zan momomning hovlilariga, oddiy
va mo'jazgina uylariga kirib,

sog'inchdanmi,
alamdanmi to'yib-to'yib
yig'layman. Momojonim, sizni eslatib
turuvchi naqshlar bilan bezatilgan chinni
choynak va piyolangiz, zarhaldek tovlanib
turuvchi soatingiz, o'z qo'lingiz bilan jilo
bergan so'zanalar, tikuv dastgohlaringiz va
onajonim ulg'ayib katta bo'lgan
belanchakka qarasar, yuragim zirqirab, bu
yorug' dunyo ko'zimga tor ko'rinadi.
Uyingizning chekkasida o'tirib qo'lingizni
duoga ochib, avvalambor, yurtimiz tinchligi-
yu barqarorligini, menga baxt va omad yor
bo'lishini tilab, oq fotiha berganingiz
hammasi esimda.

Doimo ruhingiz shod bo'lsin, oxiratingiz
obod bo'lsin.

Dilora NE'MATOVA,
Buxoro viloyati,
8- umumiy o'rta ta'lim maktabning
10- sinf o'quvchisi.

IBRAT OLSAK
ARZIYDI

Men Alisher Navoiy nomidagi
Respublika nafis san'at litseyida tahsil
olaman. Matematika, ona tili, adabiyot
va tarix fanlari chuqur va mukammal
o'rgatiladigan litseyimiz
mustaqilligimizning tengdoshi, tashkil
topganiga bu yil o'n yil bo'ldi.
Ustozlarimizning saboqlarini zo'r
qiziqish bilan tinglaymiz. Ularning
boshchiligidagi turli mavzularda kecha va
tadbirlar o'tkazish yaxshi bir an'anaga
aylangan.

Yaqinda ana shunday tadbirlardan biri
10 - «B» va 10 - «G» sinf o'quvchilari
orasida tarix fanidan musobaqa bo'lib
o'tdi. Ikkala sinf o'quvchilari ham
bellashuvga puxta hozirlik ko'rishgani
bois, durang natija bilan yakunlandi. Shu
kabi bellashuvlarda bilmaganlarini
o'rganib, bilimlarini yanada boyitib
borayotgan o'quvchilarimiz turli fan
olimpiadalarida ham muvaffaqiyatli
qatnashib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib
kelishyapti. Alisher ismli o'quvchimiz
tarix fani bo'yicha o'tkazilgan
olimpiadada qatnashib, respublika
bo'yicha birinchi o'rin sohibi bo'ldi va
imtihonsiz oliy o'quv yurtiga kirib o'qish
baxtiga muyassar bo'ldi. Biz ham
Alisherga havas qilib, uningdek o'qishga,
oltinga teng damlarimizni behuda
o'tkazmaslikka intilyapmiz.

Shahnoza OYDINOVA,
10 - «G» tarix sinfi o'quvchisi.

VAQT BEBAHO NE'MAT

«Inson uchun eng bebaho narsa bu - vaqt» deb bejiz aytilmagan. Vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi, boz ustiga u suv kabi tez o'tib ketadi. Men bo'sh

vaqtlarimda mashg'ul bo'lish niyatida tikish-bichish kabi hunarni mehnat o'qituvchimi Gulchehra Ismatovadan o'rganib oldim. O'g'il bolalar uchun sport

to'garaklari bo'yicha «Nur klubi» faoliyat ko'rsatmoqda. Klub doimo o'quvchilar bilan gavjum. Yana o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish uchun maxsus shou musobaqa tashkil etilgan. Maktab bo'yicha eng yuqori ballni qo'lga kiritganlar katta yig'ilishda maxsus e'lon qilinib rag'batlantiriladi.

Toshkent shahrining Mirobod tumanida joylashgan ushbu 154-maktab jamoatchiligi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlari uchun barcha sharoitni yaratishga harakat qilishadi.



u birinchi murabbiy sifatida meni aytsa, demak men oldimga qo'ygan maqsadimga erishgan

Jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Mixail Diyachev bir gapni tez-tez qaytaradilar. «Yillar o'tib oralaringizdan biror bir kimsa Xalqaro musobaqada qatnashib, O'zbekiston chempioni bo'lsa va

bo'laman», - deyдилar.

Maktab rahbarimiz Qarshiboyeva Gulchehra opa har bir sinfning o'zlashtirishini va davomatini sinchiklab kuzatadilar. Har bir o'quvchining o'z yo'lini topishga xayrixohlik qiladilar.

Dilfuza MAJIDOVA,
9-sinf o'quvchisi.

21 oktyabr - O'zbek tiliga Davlat tili
maqomi
berilgan kun

TILNING BORLIGI - XALQNING BOYLIGI

Til millatning borligini bildirib turuvchi ramz hisoblanadi. Navoiy bobomiz o'zbek tilida ham go'zal, ajoyib, takrorlanmas asarlar yaratish mumkinligini isbotlab berdi. Turkiy tilning asoschisi sifatida tarix zarvaraqalaridan joy olib, g'azal mulkining sultoniga aylandi.

XIX asrning so'nggi choragida Markaziy Osiyoning chorizm tomonidan bosib olinishi, ona tilimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ayrim shaxslar «Xalqni yo'q qilish uchun, uning tilini yo'qotish kifoya» degan gapni shior qilib oldilar.

Mustaqilligimiz sharofati ila 1989 yil 21 oktyabrda «O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi qonun» xalqning azaliy orzularidan birini ro'yobga chiqardi. Shuni faxr bilan aytish mumkinki, ona tilimizni o'rganuvchi, unga qiziquvchi chet elliklar soni tobora ko'paymoqda.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga o'n yil to'lishi munosabati bilan bizning litseyda, ya'ni TDTU qoshidagi akademik litseyda ham ushbu mavzuga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Tadbirdan maqsad dunyoning qaysi nuqtasida bo'lmaylik o'z ona tilimizga sodiq bo'lishimiz, Vatanimizni gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shmog'imiz va albatta Amir Temur hazratlari aytganlaridek «turkning bosh bo'g'ini» ekanligimizni unutmaslikdir. Zero, xalqning boyliklaridan biri uning ona tili borligidir.

Feruza ISMOILOVA,

TDTU qoshidagi akademik litseyning
III- kurs talabasi.

Ustozga ta'zim

BIZNING KARIMA OPA

Bir kuni Iskandardan:

- Sen ustozingni otangdan ko'ra yaxshiroq hurmat qilar emishsan, shu rostmi? - deb so'radilar.

- Ha, - deb javob berdi Iskandar, - otam meni yo'qlik osmonidan olib tushdi, ustozim esa yerdan ko'kka ko'tardi.

Buzurgmehrardan:

- Nima uchun ustozingni otangdan afzalroq hurmat qilasan? - deb so'radilar.

- Chunki otam meni o'tkinchi hayotga olib keldi, ustozim esa boqiy hayot bag'ishladi.

Darhaqiqat, dunyoda eng piru badavlat inson o'qituvchi. U dunyodagi har qanday gavhardan ham qimmatli bo'lgan inson farzandini voyaga yetkazadi.

**Yuz yil yashasam-da,
Hech esdan chiqmas.
Menga harfni ilk bor,
Tanitgan ustoz!**

Har tong ukamni maktabga jo'natayotganimda yuragim orziqib ketadi. Chunki bundan 11 yil avval men ham jajjigina qizaloq edim. Men ham o'sha maktabda, ya'ni A.Yassaviy nomli 203- maktabning 1- «B» sinfida tahsil olardim. Ustozim Valiyeva Karima opa 35 o'quvchiga birdek ham yozishni, ham o'qishni o'rgatdilar. Endi bilsam, ularga juda qiyin ekan. Axir 35 o'quvchiga dars berish, ularni ko'ngliga yo'l topa olish, tilini tushunish, hammasini birdek erkalab suyish, ehe... Oson ish emas. Aqlimni tanib, endi his qilayapman.

Onamning aytishlaricha, bolalagimda juda erka va qaysar bo'lib o'sgan ekanman. Maktabga ham bormayman, deb rosa injiqliklar qilar ekanman. Ishonsangiz onam men bilan birga 1 yil maktabga qatnaganlar: Ustozim esa barcha erkaliklarimni, injiqliklarimni, sho'xliklarimni ko'tardilar. Yozishni xohlamagan qo'llarimdan ushlab yozishni, o'qishni istamagan kitoblarimni o'qishni o'rgatdilar. Axir bu birgina mening qaysarliklarim. Mendan tashqari yana qancha o'quvchilar bor.

Aziz ustoz! Siz bergan bilimingiz, o'rgatgan aqlu odobingiz doimo biz bilan. Ayniqsa, bolalikdagi shirin xotiralar yodimizda. Unutmaymiz siz bergan bilimni, unutmaymiz o'sha shirin onlarni. Mana, yaqindagina sizlarning kasb bayramingiz nishonlandi. Biz o'quvchilaringiz yig'ilib, sizni tabriklagani bordik. Siz hali ham o'shasiz. Hali ham yosh avlod tarbiyasi bilan bandsiz. Hali ham qalbingiz qaynoq, mehningiz jo'shqin, bilimingiz daryolardek cheksizdir ustoz!

Jonajon ustozim! Bolalikdagi ba'zan noo'rin gaplarimiz, qo'pol harakatlarimiz bilan nafis qalbingizni jarohatlagan bo'lsak, qo'llarimiz ko'ksimizda, boshimiz poyingizda yuz bora, ming bora ta'zim qilishga, kechirim so'rashga tayyormiz. Umr yo'llarimizda o'z Karima opamiz bo'lib bizga yo'l-yo'riq ko'rsatib turasiz.

Adolat G'AYRAT qizi.

BOG'BONU SHIFOKOR BOBOM

Men Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi Obod mahallasida yashayman.

Xonadonimiz shundoqqina mahallaga kiraverishda joylashgan. Hovlimizning ro'parasida esa qadrdon maktabimiz qad rostlagan. Mahallamiz juda obod va ko'rkam. Uning «Obod» nomiga munosib bo'lishida bobomning xizmatlari katta. Bobojonim Ergash ota Shorustamov shifokorlar, buvijonim Sanobar aya bilan mana 45 yildirki ahil-inoq yashab kelishadi. Biz 15 nafar nabiralari ularni juda yaxshi ko'ramiz, boshimizga ko'tarib, e'zozlaymiz.

Bobojonim juda mehnatkashlar. Yoshlari bir joyni qoralab qolgan bo'lsa-da, tinib-tinchimaydilar. Shifokor emasmilar, shifo istab kelgan qo'ni-qo'shnilar, qarindosh urug'lar dardlariga malham bo'lishga intiladilar, ulardan yordamlarini ayamaydilar. Maktabimiz atrofiga mevali va manzarali daraxtlar ekib, o'zlari parvarishlaydilar. Yaratgan gulzorlarini ko'rsangiz, ko'zingiz quvnaydi. Maktabdan keliboq, ularning yonlariga oshiqamiz. Bog' ishlarida qo'ldan kelgancha ko'maklashamiz. Bobojonim bizlarni g'arq pishgan mevalar bilan siylaydilar.

Farruh SHOERGASHEV,
Fuzuliy nomli maktabning
3 - sinf o'quvchisi.

Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'ruq fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, butun kutubxonalarimiz xazinasida

AJDODLARDAN FAXR ETAR QALBIM

TURKHLARNING NOMI VA ONA YURTI

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullas, Vatani va tarixini bilishni istaydi.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

«Mening turk ismli va Sharqdan makon berganim bir qo'shinim bor. Qaysikim qavmga g'azablansam, mazkur qo'shinni uning ustiga soldiraman».
Qudsiy hadis
(Mahmud Qoshg'ariydan)

hozirgi O'zbekiston hududiga

**Билаги зўр
бирни йиқар,
билими зўр
мингни.**

saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimiz. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi.

Qadim zamonlarda Xun, Ko'k-turk, Uyg'ur va boshqa davlatlarning markazlari O'rxun tegrasida joylashgani tufayli Mo'g'uliston turklarining ona yurti hisoblanardi. Ammo tarixiy, lisoniy va dostoniy dalillarga asoslangan tadqiqotlar turk ona-yurtining Oltoy-Ural tog'lari orasi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunga

Mo'g'uliston hududi ham kiradi. Darhaqiqat, tarixiy bilimlarimiz bilan birga dostoniy rivoyatlar ham Ona-Vatan markazini Bolqon, Orol va Issiqko'l hududlarida bo'lganligidan shohidlik bermoqda. Chunonchi, dostoniy O'g'izxon, Afrosiyob va boshqa hukmdorga tegishli hikoyalar

bilan ko'k-turk, o'g'iz va qorluqlarga doir bir qancha tarixiy xotiralar asosan shu hududlarda vujudga kelgan: Masalan, Sirdaryo atrofida yashagan o'g'iz poytaxti Yangikent va boshqa bir qancha muhim kentlarning Afrosiyob tomonidan bunyod etilgani aytilgan. O'n ikki hayvonli turk taqvimining ijodi ham afsonaviy bir turk hoqoniga va Il daryosi vodiysiga bog'langan. «O'g'iz dostoni Sirdaryo atrofini O'g'izlarning ona yurti o'laroq tasvir etarkan, Chin manbalari xunlar naslidan kelgan ko'k-turklarning (istiqlolga erishmasdan avval) Oltoy janubida yashagani va temirchilik bilan mashg'ul bo'lganini ta'kidlaydi. Bu yer milliy an'analarning markazi bo'lib, turklar, xunlar va ko'k-turklar davrida har yilda

beshinch o'ying sakkizinchi kunida Tangriga va ulug'larning ruhlariga diniy marosim o'tkazishardi. Muqaddas kitoblarga bog'liq rivoyatlar ham Yofasning o'g'li «Turk»ning vatanini Issiqko'l deya shohidlik bermoqda. Chunonchi rivoyatlarga ko'ra Nuh payg'ambar dunyoni o'g'illari - Xom, Som va Yofasga taqsimlarkan, turklarning (ajdodi) bo'lgan uchinchisiga (Yofasga) Jayxun(Amu) nahrining narigi yuzidagi mamlakatlarni, ya'ni Turkistonni bergan, Oq-xunlar, g'arbiy ko'k-turklar, keyingi o'g'izlar va qorluqlarning Sirdaryo va Issiqko'l havzalarida yashashlari rivoyatlarning tarixiy manba ekanligidan dalolatdir.

Dunyo tarixi tegrasida qadimgi turk xalqlarining tarixi va ular yaratgan davlat taqdiri shunday bir savolga kelib taqaladi: turklar qanday paydo bo'lgan va nima uchun ular aslida avlodlari

bo'lmagan ko'plab xalqlarga nomini qoldirib, yo'qolib ketdi?

Qadimgi turklar insoniyat tarixidagi katta o'rniga qaramay o'zi kamsonli bo'lganlar hamda Xitoy va Eron bilan uzviy aloqasi ularning ichki ishlariga ta'sir etmay qolmasdi.

Movarounnahrda shimoldan kelib o'rnashib, mustaqil davlat yaratgan o'zbeklarning keyingi etnik qatlami - islom diniga o'tgan chig'atoylar sulolasi hukmronlik qila boshlagan. Unda turkiy elatlar va qabilalar ko'pchilikni tashkil qilgan. Kelgindilar ichida ham turkiy va turkiylashgan mo'g'il qabilalaridan jaloir, barlos, qovchin, o'rlat va hokazolar

**Билган билганин
ишлар,
Билмаган
бармоғин
тишлар.**

joylashib, umuman chig'atoylar deb nomlangan. O'zbek adabiy tilini keyinchalik A. Navoiy rivojlantirib, uni dastlab «chig'atoy tili», deb atagani ham bejiz emas. Kelgindi elatlar mahalliy o'troq aholi bilan qo'shib, XV-XVI asrlarda butun O'rta Osiyoda qudratli kuch sifatida katta rol o'ynaganlar. O'sha davrdan boshlab, Movarounnahrning turkiy aholisi «chig'atoylar» deb atalgan. Bizning davrimizgacha yetib kelgan chig'atoy turklari etnografik guruhlaridan o'z etnik xususiyatlarini saqlab qolgan turklar, qarluqlar, barloslar, kaltatoylar, musobozori, mo'g'illar hozir ham uchraydi.

(Bu haqda keyingi sonlarda to'xtalamiz).

**Пуринг кучли
бўлгунча,
Билиминг кучли
бўлсин.**

(Davomi. Boshi o'tgan sonida)


VII asrda mintaqamizni arablar istilo qilishi oqibatida o'lkamizga islom dini kirib keldi. Yerlik aholi bosqinchilarga qarshi kurashni muttasil davom ettirib, o'z ozodligiga erishdi. Lekin islom ta'limoti xalqimiz orasida mustahkam o'rnashib qoldi.

Islom dini, ayniqsa, xotin-qizlar taqdirida tub burilish yasadi. Bu ta'limot ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollar bilan erkaklarning tengligiga barham berib, ayollarni erkaklardan keyingi shaxslarga aylantirgan bo'lsa-da, ayolni oilaning ma'naviy mustahkamligini ta'minlovchi va barkamol farzandni tarbiyalab voyaga yetkazuvchi zot sifatida ulug'ladi. Shuningdek, u ayollarga o'zlarini muborak zot sifatida tanishlariga imkon yaratib berdi.

Amir Temur va temuriylar davrida xotin-qizlarni ma'rifatli qilishga keng imkoniyatlar yaratildi. Erkaklar madrasalarda ta'lim berganlar, ilm o'rgatganlar. Aynan ana shu davrda yuzlab ma'rifatli, ilmi, dono va zukko ayollar yetishib chiqdi. Ayniqsa, temuriy xonimlar dono maslahatlari bilan saltanat ishlariga aralashganlar, xalq orasida ilm-ma'rifat tarqatish bilan shug'ullanganlar. Tolibi ilmlarga homiylik qilib, yirik inshootlar, ma'rifat maskanlari qurdirganlar. Ular mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lganlar. Bu ayollar orasidan Amir Temurning zavjai muhtaramasi Saroymulkxonim (1341-1408, Bibixonim), Shoh Jahonning sevikli xotini

Mumtoz Mahal begim (1594-1631), Shoxruh Mirzoning rafiqasi Gavharshodbegim (1379-1457) kabi aql-farosat bobida yetuk va fozila saltanat homiylari, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegim (1523-1603), Jahongir shohning suyakli xotini - Nurjahon begim (Mehriniso, 1577-1645), Avrangzeb Olamgirning qizi Zebuniso begim (1639-1702) kabi adiba va hassos shoirlar yetishib chiqqan. Bundan tashqari, 1554 yilda yozilgan «Javohir ul-ajoyib» tazkirasida 31 nafar shoira haqida ma'lumot keltirilgan.

Tarixiy hujjatlarda, shuningdek, vaqf yerlarida boshqaruvchi bo'lgan Alike Ko'kaldosh, Fotima Sulton, Affoq begim (XV asrlar) kabi mutavalliy ayollar, XVI asrda Shayboniyxon davrida Hoji Xotun, Zuhra begim, Sulton Beka, Mamon Sulton, bibi Og'ajon kabi do'kondor ayollar yashab o'tganlari haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, hunarmand ustalar orasida ham ishlab chiqarish bilan mustaqil shug'ullangan ayollar bo'lgan. Ayniqsa, baxmal to'qish, kashta tikilgan matolar ishlab chiqarish bobida ayollar juda katta mahorat ko'rsatganlar. Ayollar to'qimachilik ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan xom ashyoni yetishtirish va qayta ishlash bilan shug'ullanganlar. Ular ipak qurti boqishda asosiy



kuch edilar. Qo'qon, Buxoro xonliklarining qishloq va shaharlarida asosan ayollar mehnati bilan tayyorlangan ipaklar xom ashyo sifatida Eron, Hindiston kabi mamlakatlarga olib ketilgan.

XVI asrga kelib, O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotida parokandalik sodir bo'ldi. Feodal tarqoqlik va ko'p sonli hokimiyat da'vogarlari orasidagi muttasil urushlar temuriylar saltanatining siyosiy qudratini susaytirib, Shayboniyxon lashkarlari tomonidan mamlakatning bosib olinishiga zamin tayyorladi. Bu davrda mintaqamizda ilm-fan og'ir ahvolga tushdi, yetuk ilm-ma'rifat egalari quvg'inga uchradi. Ularning o'rnini xurofot peshvozlar egallab oldi. Oqibatda, butun dunyoga ziyo tarqatib turgan Movarounnahrda

ilm-ma'rifat chiroqlari so'na boshladi. Xurofot xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligiga, ularning ijtimoiy hayotdagi erkinliklariga ham chek qo'ya boshladi. Ayollarning yuzini ko'rsatishi, ovozini eshittirishi, jamoat joylarida, ko'cha-kuyda mahramsiz yurishi, dehqonchilik, savdo-sotiq bilan shug'ullanishi qat'iy ta'qiqlandi. Shunday qilib, din xurofot botqog'iga aylantirilib, u ilm ahli bilan birgalikda xotin-qizlarni ham domiga torta boshladi. Lekin xotin-qizlar ilm olish, bilim va tajribalarini kengaytirish imkoniyatidan mahrum bo'lsalarda, ularda ilm-ma'rifatga intilish tuyg'usi hech qachon so'nmadi. Ular o'tmish ma'naviy xazinamizning durdona asarlarini yod olib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga yetkazdilar.

Lekin mamlakatdagi siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanglik, hokimiyat uchun talashishlar, jabr zulmning kuchayishi erkarparvarlik va isyonkorlik ruhida tarbiya topgan Sharq musulmon ayollarini loqayd qoldirmadi. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Nodirabegim, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin kabi ayollar faqat ijodkor sifatida emas, balki o'z elining ma'rifatli bo'lishi uchun qayg'uradigan jabr-zulm, adolatsizlik, erksizlikdan iztirob chekib, nola qiladigan fidoyilar bo'lib yetishdilar.

Bu tom ma'noda Sharq ayollarining uzoq davom etgan

uyqudan so'ng uyg'ona boshlagan davri bo'lib, afsuski, Rossiyaning mustamlaka siyosati tezda bunga barham berdi.

Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida xotin-qizlarga nisbatan jabr-zulm, zo'ravonlik yanada kuchaydi. Ular deyarli barcha insoniy huquqlardan mahrum etila boshladilar. Qizlarini juda erta turmushga berish, ularning roziligini olmay sotish, quldek munosabatda bo'lish avj oldi. Bu davrlarda xotin-qizlarning hammasi ijtimoiy faolligi jihatidan teppa-teng bo'lib qoldilar. Ya'ni, ular to' Oktyabr inqilobigacha faqat «ichkari»da oila yumushlari va farzand tarbiyasi bilan band bo'ldilar. Oktyabr to'ntarishidan so'ng sho'rolar tomonidan yurgizilgan millatchilik siyosati xalqimizning uzoq yillar davomida shakllanib kelgan milliy, madaniy va ma'naviy negizlariga ikkinchi marta qattiq zarba berdi. Mustamlakachilar katta tarix va madaniyatga ega bo'lgan, ma'nau yuksalgan isyonkor va shijoatli xalqni batamom bo'ysundirish, uni siyosiy va ma'naviy qullikda saqlash maqsadida Turkiston o'lkasida makkorona siyosat yuritib boshladilar. Bu tajovuzkor siyosatning mohiyatida ham ayollar turardi. Shu siyosatning mohiyati o'laroq, o'zbek xotin-qizlari uchun «hujum» kompaniyasi uyushtirildi. Bu kompaniya faqat xotin-qizlar taqdiriga emas, balki o'zbek xalqining an'analarga, udumlariga, tarixi, dini, tili, madaniyati va ma'naviy qadriyatlariga qarshi hujum edi.

(Davomi keyingi sonlarda).

ЯККА МИСРАЛАР:

Исминг-бир қисминг,

Чиройлик ҳам бойлик.

Отилса ҳам сотилмайди мард.

Секин ўсар ҳар вақт мевади дарахт.

Қорақуяси учун қораланмайди қозон.

Билимсиз билимдонлик қилади.

Тош тош билан синдирилади.

Шошганинг-адашганинг.

Фазилати борнинг нуқсони ҳам бор.

Чакки эди дакки еди.

Қўл, оёқ, тилнинг ҳар чакки иши-бошнинг ташвиши.

Қариган ва беҳол бўлса ҳам бўри поданинг шўри.

НИМАТНОМА МИСРАЛАР

“МИНГ БИР ТАЪБИР” КИТОВИДАН

ЖУФТ МИСРАЛАР:

Матонатдан дур яралади,
Маҳоратдан - нур таралади.

Тураверсанг тиззанг толади,
Юраверсанг изинг қолади.

Яхши билан юрсанг ишинг унади,
Ёмон билан турсанг - тишинг синади.

Ақли камлигидан ҳеч ким нолимас,
Бу ҳамма ақли деган гап эмас.

Булоққа лой ташлаб кўзини ёполмайсан,
Қуёшдан ғийбат бошлаб айбини тополмайсан.

Одамларга ишонч бўлсин ҳамиша аҳдинг,
Агар сенга ишонишса - бу катта бахтинг.

Қўпайганда ҳамма нарса арзонлашади,
Фақат ақл ортган сари қимматлашади.

Омадингга уч нарса қафил:
Яхши ният қилу ишон ва интил.

Соғлиғу бахтингдан фахрлан, майли,
Иккиси ҳам, ахир, ақлинг туфайли.

Қопағон итни ҳам дўст қил йўлингда,
Лекин таёғингни қўйма қўлингдан.

Бахт ҳам қушга ўхшайди, тутиб,
Қўлдан чиқишини қўйма унутиб.

Омадинг ёр бўлар, юришар ишинг
Илҳоминг бўлганда энг яқин кишинг.

Қўрқсанг тикан захридан,
Кеч атиргул баҳридан.

Бировларнинг нуқсонини сўзлашдан бурун
Ўз нуқсонинг ҳақида ҳам ўйлашга урин.

Биров зинапоя қурар ё нарвон ясар,
Ундан юқорига чиқар бошқалар.

Қулоқ иккита, сабаб: кўпроқ тинглашинг керак,
Тилинг битта-оз сўзлашинг, англашинг керак.

Ботирга бўш кўринган
Қўрқоққа қўш кўрингай.

Бош енгил бўлса оёққа оғир,
Оёқнинг енгил бошга роҳатдир.

Ўйлашга, қулишга ҳамма ҳам қодир,
Ўйлатмоқ осон иш, қулдирмоқ-оғир.

НУРБЕК

Hamdam SODIQOV

(Davomi. Boshi o'tgan
sohlarda)

Chordona qurib ko'rpachalarda o'tirgan kishilar oldida xontaxtalar. Ularda turli noz-ne'matlar uyulgan. Barvasta qomat bek qo'li bilan pardani ochdi. Simeon bilan Aytak chodir to'riga qadam bosishdi. Bu joy hashamati bilan ko'zni qamashtiradi.

- Tiz cho'k, - sekin shivirladi Aytak. Simeon qarshisida turgan, o'tirgan kishilar orasida Temurbek borligini tushundi. Tiz cho'kib boshini quyi soldi. Aytak nimalarnidir knyazga shipshidi.

- Temurbek arzingni tinglashga tayyor.

Ikki navkar kelib Aytakni, keyin esa knyazni ko'rpachalarga o'tkazdi. Yoshgina G'ulom qo'lida obdasta ko'tarib, qo'llariga suv qo'ydi. Boshqasi esa sochiq tutdi.

Simeon oltin laganlardagi qovurilgan go'shtlar, kumush qadahlarda jilolangan sharoblar, hali hech ko'zi tushmagan mevalar, g'aroyib taomlarni ko'rarkan, beixtiyor «Ming bir kecha» hikoyalarini esladi. Ha, u Horun-ar-Rashid huzurida. Atrofda sodiq vazir Ja'far, mulozimlar. U tush ko'rmoqda edi.

- Sohibqiron dasturxonga qaranglar demoqda, knyaz.

Simeon Aytakning tovushidan o'ziga keldi. Sekin boshini ko'tarib, undan nigohini uzmay, to'rdagi ko'rpachada yostiqa yonboshlagan kishiga qaradi. Ha, u butun Ovrupo, Osiyoda dong'i ketgan, Rusni dahshatga solgan Temurbek. Gavdasi kelishgan, peshonasi ochiq, yelkalari keng, oqish yuzida och qizil rang jilolangan. Uzun soqoli o'ziga yarashgan. Ovozi jarangdor.


- Bu qadahni Temurbek sog'lig'iga ichishing lozim, knyaz, - dedi Aytak tilmochlik qilib.

- Joqu, - dedi Temurbek o'sha jarangdor tovushda, - mehmonga o'tkiridan kattasiga quyib ber.

Dasturxon amiri bo'lib o'tirgan tumanboshi Joqu kumush qadahni Aytakka uzatdi.

- Qoidaga ko'ra hammasini ich, knyaz, toki tomchisi ham qolmasin. Sohibqiron salomatligi uchun qadah ko'targan odam shunday qilmog'i lozim.

Simeon tagi chuqur bunday katta qadahda sira



TEMURGA SIG'INGAN KNYAZ

ichmagan bo'lsa ham uni dadil qo'liga oldi. Bu sinov. Undan sharaf bilan o'tmog'i lozim.

- Barakalla, knyaz, - Aytak gazak qilishga imo qildi. - Atrofingda shahzoda va sarkardalar o'tirganini unutma.

Outlug' Temurxon nimanidir gapirdi. Suhbatdoshlar kulishdi. Simeon ovqatdan totinib bo'lgach, sochiqqa artindi.

- So'yla, arzingni, - dedi Aytak Temurbek ishorasini anglab.

Simeon o'zini yengil sezdi. U musulmonlar odatidagi chuqur ma'noni angladi. Avval taom, keyin kalom. Mehmon kim bo'lishidan qat'iy nazar, hurmat-izzat qilinadi. Xristianlar o'rgansa, namuna olsa arzigulik narsalar ko'p ekan.

Knyazni yana bir holat ajabga soldi. Temurbek rus knyazlari, boyaru-ruhoniyalar ta'riflagandek yovuz Yulian, Qonxo'r Diokletian, odamxo'r Maskimilianga sira o'xshamaydi. U hozir qarshisida dahshatli vajohatli jahongir emas, balki urushlarda

umri o'tib oqib qorani tanigan buyuk jangchini, mehmondo'st mezbenni ko'rdi. Birovlarning arz-dodini tinglashga erinmasdilkash odamni his qildi.

Knyaz boshidan

o'tganlarni gapirdi. To'xtamishxon va Moskva knyazidan adolat istab, kechirgan uqubatlarni so'yladi. Aytak uning so'zlarini musulmoncha tarjima qildi.

Temurbek o'ygacha cho'mgancha bu navqiron rus bahodirining darbadarlik, omadsizlik, mag'lubiyat va judoliklarga to'la hayoti qissasini tinglarkan, beixtiyor o'tib ketgan, endi qaytmas yoshligini esladi. Beg'ubor yoshlik! Kuchga, g'ayratga, shijoat va umidga boy bebaho yoshlik! Evoh, endi u sira qaytmaydi!

Simeon nimasi bilandir unga to'ng'ich o'g'li Jahongirni, 29 yoshida olamdan o'tgan suyukli O'ljoydan ko'rgan birinchi farzandini yodiga soldi.

U ham qachonlardir toju taxt uchun kurashda hukmdorlardan panoh va najot istagan, kimlargadir ishongan ham ko'p pand yegan.

- Moskovda ne gaplar hozir, o'g'lim, - dedi Temur muloyim ohangda.

Simeon uning shafqat va xayrixohlik bilan qilayotgan suhbatidan tog'dek ko'tarilgan ko'ngli bilan hech narsani yashirmay bor haqiqatni aytdi. Moskva vahimaga tushgan. Buyuk knyaz Vasiliy Dmitriyevich jangga taraddud ko'rish uchun askar yig'moqchi bo'layapti. Ammo mulozimlari, boyarlar kayfiyati tushkun. Mitropolit Kiprian hammani ibodatga undamoqda. Vladimirdan Bibi Maryamning mo'jizakor ikonasi Moskva keltirib, cherkovlarda yoshu qari ibodat qilmoqda. Kunu tun xudoga nola qilib, boshga kelgan ofat - Temur balosidan qutqarishini so'rashmoqda. Buyuk knyazdan tortib, barcha Moskva ahli - fuqarosi cherkovlarda nola qilishmoqda.

- Nasroniylar endi xudoni eslashibdi-da, - kuldi Temur, - xo'sh, mening haqimda nima deyishmoqda?

- Aytishga tilim bormaydi, ulug' sohibqiron, - dedi ochiq ko'ngil bilan Simeon.

Mir Said Baraka yonida cho'kka tushib, pining xizmatida hoziru nozir turgan o'rta yoshlardagi darvesh luqma tashladi.

- Ammo biz bilamiz buni. Ollohning shamshiri, sohibqironi azim Temurbekni moskvaliklar qadimgi Rumo hukmdorlari bo'lmish yovuz Yulian, Diokletian, Maksimilianlarga qiyos etishmoqda.

- Ha, - bosh iring'adi Simeon, - yana ko'p bema'ni afsonalar ham aytishmoqda. Ular ham sizga ayon bo'lsa kerak.

- Ha, - dedi darakchilar boshlig'i mag'rur, - Maliki rahim, avvalu oxir, arshi azim, samavotu zaminlar yaratguvchisi Ollohga hamdu sanolar bo'lsin! U har narsani eshitguvchidir, har narsani bilguvchidir, tavbalarni qabul qilguvchidir, himmati benihoya halimdir, to'zimlidir. Ollohi azimga hamdu sanolar bo'lsin!

(Davomi keyingi sonlarda).

BEJIRIM LIBOSLAR

Shunday bir iste'dod borki, u hech qachon so'nmaydi, mashhurlikka yetaklaydi. Bu iste'dod meni mashhur qiladi degan umiddaman. Ayollarimiz, qizlarimiz ko'rki bo'lgan bejirim kiyimlarni, modalarni tanlashda mening chizgan dizaynlarim yoqadi, degan umidda xayolimdan o'tkazdimu lekin xuddi shunday bo'larmikanmanmi, deb o'ylab qoldim.

Men xohlardimki ayollar, qizlar bejirim, chiroyli kiyinsalar. Shu maqsadda o'zim chizgan dizaynlar namunalarni yuborishga ahd qildim. Men bu rasmlarni chizsam hech qachon charchamayman, balki o'zim chizgan rasmlarimdan orom olaman. Rasmlarni osongina chizganim kabi qaniydi ularni

ham osongina tika olsam, deb xayol surib uyni ichiga kirdim. U yerda modalar rasmlari tushirilgan jurnal hamda tikuv mashinam bor. Shu o'yda uyga kirdimu tika boshladim. Keyin oyimga ko'rsatdim. Oyijonim ko'rib yuzlaridan quvonch nuri yog'ila boshladi. Chunki «Mening qizim birinchi marotaba ko'ylak tikibdi», - deb quvonchilari ichlariga sig'may, to'lib toshib ketdilar-da. Xayol surib o'tirganimda: «Dilfuza qizim, nima qilayapsan», - deb oyim kirib qoldilar. Shunda men chizgan dizaynlarimni oyim ko'rib qoldilar va miyig'ida kulib, xursand bo'ldilar.

Dilfuza OYDINOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh
shahridagi 59-maktab o'quvchisi.



BURJLAR

NIMA?

Yulduzlarni kuzatayotganda, ular tanish haflar, uchburchaklar, kvadratlar hosil qilishiga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Odamlar qadim zamonlardan beri dunyoning turli burchaklarida shunday yulduzlar turkumini turli nomlar bilan atab kelishgan. «Burj» arab tilidan tarjima qilganda «yulduzlar turkumi» degan ma'noni

anglatadi.

Burjlarning nomlari bizga qadimgi rimliklardan yetib kelgan, ular esa bu nomlarni yunonlardan olishgan. Yunonlarga esa yulduzlar to'g'risidagi ma'lumotlarning bir qismi bobilliklardan o'tgan.

Bobilliklar yulduzlar turkumini hayvonlar, qirollar, qirolicha va rivoyatlar qahramonlari oti bilan atashgan. Keyinchalik qadimgi yunonlar Bobilda qaror

topgan nomlarni Gerkules, Orion, Persey kabi o'z qahramonlari nomi bilan o'zgartirishgan. Bunga qadimgi rimliklar ham o'z hissasini qo'shishgan. Ayni paytda biz ham o'sha ko'hna nomlarni ishlatamiz, lekin bu nomlar anglatgan timsollarni har doim ham osonlikcha tasavvur qila olmaymiz. Masalan, Burgut, Kichik va Katta Ayiq hamda Mezon burjlari o'z nomlariga

unchalik mos kelmaydi.

Mashhur munajjim Ptolemey, taxminan, melodiylar 150 yili o'ziga ma'lum bo'lgan 48 ta burjning ro'yxatini tuzgan. Bu ro'yxatdagi yulduzli osmondagi burjlarning barchasi ham kirmagan, ko'pchilik burjlar tushib qolgan. Shuning uchun ham olimlar keyinchalik Ptolemey tuzgan ro'yxatga qo'shimchalar kiritib, uni kengaytirishgan. Keyinchalik kashf etilgan burjlarga ilmiy asboblarning nomi berilgan: Sekstant, Kompas, Mikroskop singari. Bugungi kunda fanga 88

ta burj ma'lum.

Burj osmonning ma'lum bir qismini egallaydi. Buning ma'nosi shuki, har bir yulduz, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi ma'lum bir shtatda joylashgan shahar kabi, muayyan burjda qo'nim topgan. Bir vaqtlar burjlar chegarasi doimiy bo'lmagan va siniq holda bo'lgan. Munajjimlar 1928 yili burjlar chegarasi to'g'ri chiziqdan iborat bo'lishi uchun ularni to'g'rilashga qaror qilishdi.

«Mo'jiza kitob»dan.

Suratda mayin kulib turgan tengdoshingizga qarab: «Bu qizni qayerda deb ko'rganman, deb o'ylayotgandirsiz? Esladingiz-a, Oynai jahon orqali chiroyli raqslar ijro etganini, turli kliplarda chiqqanini ko'rganingiz. Ismi-sharifi Nasiba Sodiqova, yoshi 13 da. San'atga, ayniqsa, raqs tushishga ixlosi baland.

Nasiba Toshkent shahar A. Ikromov tumanidagi 203- maktabning 7-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shuningdek, «BULBULCHA» bolalar dastasi raqs to'garagining eng faol qatnashchilaridan biri...

Qolgan gaplarni uning o'zidan eshita qolaylik:

- Bog'chaga qatnab yurgan vaqtlarimda turli tadbirlarda raqsga tushib yurardim. Maqtanish emas-ku, maktabda ham hech bir tadbir mening raqsalarimsiz o'tmaydi. Raqsni jonli dilimdan sevganim bois, sahnada butun vujudim bilan

JURNALIST
BO'LSAM DEYMAN

o'ynayman. Keyinchalik maktab, tuman miqyosida o'tkazilgan tanlovlarda ham ishtirok etib, bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shunda menga O'zbekiston televideniyesi qoshidagi «Bulbulcha» raqs va xor dastasiga borishimni maslahat berishdi. Dilfuza opam ilk bor qo'limdan yetaklab «Bulbulcha»ga olib borganlari, o'sha damdagi hayajonim hecham yodimdan chiqmaydi. Bizni ustozim Dilbar opa Abdullayeva iliq qarshi oldilar. Mana 3 yildirki, ana shu guruhda raqs sirlarini o'rganib kelyapman...

- **Maktabing, ustozu dugonalarim haqida ham gapirib ber.**

- Maktabimni juda yaxshi ko'raman, u haqda qancha gapirsam shuncha oz. Chunki u yerda mening mehribon ustozlarim, sirdosh dugonalarim

bor. Ularning barini yaxshi ko'raman. Qolaversa, turli tanlovlarda qatnashib, g'oliblik nashidasini surishimga sababchi bo'lgan qadrdon maktabimdan, direktorimiz Azimbek aka To'xtabekovdan, barcha ustozlarimdan behad minnatdorman.

- **Nasiba, dugonalarim haqida mehr bilan gapiryapsan. Sinfidoshlaring haqida ham shunday iliq gaplar ayta olasanmi?**

- Albatta. Sinfidoshlarim bilan juda ahilmiz, barchasini juda hurmat qilaman. Ular ham menga havas bilan boqishadi.

- **Yosh bo'lsangda bir necha kliplarda qatnashishga ulguribsan. Raqsalarim ham anchagina. Ulardan ko'ngling to'ladimi?**

- Ustozim Dilbar opamlardan «Sho'x qiz», «Pokistoncha», «Sevinch», «Xorazmcha» va boshqa ko'plab raqsalarini o'rganib oldim. Shu bilan birga

Diyorbek Mahkamovning «Akajonim» klipida, Dilfuza Rahimovaning «Ona» nomli qo'shig'iga tushirilgan klipda qatnashdim. To'g'risini aytsam, ularning baridan hali ko'nglim to'lgani yo'q. Ustozlarimdan hali juda ko'p narsalarni o'rganishim lozim deb o'ylayman.

- **Nasiba kelajakda raqqosa bo'lishni orzulasang kerak-a?**

- Raqqosalik ham juda yaxshi kasb. Lekin men jurnalist bo'lishni orzulayman. Raqs san'atini ham baravar olib borishga harakat qilaman. Menimcha, asosiysi kelajakda kim bo'lsam ham, elu yurt koriga yaraydigan komil inson bo'lolsam deyman. Halol inson bo'lolsam bas. Chunki insonni kasbi emas, uning xulqi, odobi go'zal qilib, ko'klarga ko'taradi.

- **Tengdoshlaringga, «Tong yulduzi» gazetasi muxlislariga tilaklaring?**

- Fursatdan foydalanib barcha



tengdoshlarimga va mening eng sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning o'quvchilariga mustahkam sog'liq tilayman. Yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'lishini, osmonimiz musaffo bo'lishini istayman. Menimcha, har bir bolaning tilagi shu bo'lsa kerak.

- **Samimiy tilaklaring ijobat bo'lsin, orzularing hamrohing bo'lsin, Nasiba! Shahlo MUTALOVA suhbatlashdi.**



Bor ekanda, yo'q ekan, yashil o'rmonda kichkina fil bolasi yashar ekan. U uychasida o'tirib, nima qilsam men o'rmonda yashovchi hayvonlarga foyda keltiraman, - deb juda ko'p o'ylar ekan.

Bahor kunlarining birida o'rmonga rosa jala quyibdi. Yomg'irda qolgan tulki uyiga ketayotib, xayol surib o'tirgan filchaga ko'zi tushibdi.

- Voy, bo'y, - debdi tulki, - anovini qaranglar, qanday katta quloqlar ekan. Juda ham zontik bop ekan-da.

Buni eshitgan filcha juda xursand bo'lib ketibdi. U quloqlarini yanada kattaroq

ochibdi. Filchaning quloqlari tagiga tulkichalar, quyonchalar va tipratikonlar bekinib olib, yomg'irdan saqlanibdilar...

Mana, yomg'ir ham tinibdi. Filcha yana ishsiz qolibdi. U yana nima ish qilsam ekan, - deb xayol suribdi.

Shu payt filchaning uychasi oldidan bir quyoncha sakrab-sakrab o'tib qolibdi.

- Voy, - debdi quyon, - qanday uzun burun. Juda ham suv seppishda qulay ekan-da, - debdi quyon, - dikanlab sakrab-sakrab...

Quvnoq filcha juda sevinib ketibdi. U o'z burnidan

daraxtlarga, yo'lkalarga va maysa o'tlarga suv seppibdi. Bechora filcha daraxtlarni ham sug'orib bo'libdi va u yana nima qilsam ekan, deb xayol suribdi.

Quyosh ham botibdi. Osmonda oy va yulduzlar ham ko'rindi. Qorong'i tushib, tun ham kiribdi. O'rmondagi barcha hayvonlar: quyon, tulki va tipratikonlar shirin uyquga ketishibdi. Faqat birgina filcha: kim bo'lib yetishsam ekan? - deb uxlamay o'ylab yotibdi.


To'satdan u o'rmonning yonayotganini ko'rib qolibdi. Yong'in! - debdi fil. Yaqinda, men xartumim bilan daraxtlarga

suv sepgan edim, deb o'ylab qolibdi filcha. U tezda daryoga chopib boribdi. Xartumini to'ldirib suv olib kelib, yonayotgan daraxtlarga seppibdi. Ana shunday qilib, filcha yong'inni o'chiribdi.

Uyqudan uyg'ongan o'rmon hayvonlari filchaning bu ishini ko'rib, hayratda qolibdilar. Unga juda ko'p rahmatlar aytishibdi. Shundan so'ng o'rmon hayvonlari yig'ilishib, filchani

o'rmon o't o'chiruvchisi qilib saylabdilar. Bundan filcha juda ham xursand bo'lib ketibdi. Shu kundan boshlab filcha «O'rmon o't o'chiruvchisi» bo'lib qolgan ekan...

Fransuzchadan Sayidg'ani MUSAYEV, tarjimasi. O'zbekiston Milliy Universiteti dotsenti.



UCTOZINING "O'NG QO'LI"



Abdulla Sodiqov sizning tengdoshingiz. Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 53-maktabning 6- sinfida faqat a'lo baholarga o'qiydi. Adabiyotga, she'riyatga mehr qo'ygan. Sinf rahbari Gulnora opa Yorqulovanning «o'ng qo'li» bo'lgani uchun ham bayram va tantanalarga boshchilik qiladi. Yaqinda «Til bayrami»ga bag'ishlab o'tkazilgan tantananing ssenariysini ham, she'rlarini ham o'zi yozdi. Yozgan she'rlarini jurnalist amakisi G'ayrat akaga ko'rsatib, ulardan maslahatlar oladi... Ana shunday she'riy mashqlaridan jamlab, kattakon xatildga joylab, bizning to'garagimizga yuboribdi. Tili ravon, mazmundor, sodda va samimiy she'rlari to'garagimiz a'zolariga juda yoqdi. Sizlarga ham ma'qul bo'lar degan niyatda, ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilyapmiz.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № T-2892
Gazetani
Abduhamid
ABDUG'AFFOROV
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08

JONIVORLARNING DEGANLARI

SHER

Hayvonlar shohi o'zim,
Qo'rqinch nima bilmayman.
Yerda qolmas hech so'zim,
Do'stni xafa qilmayman.




ARSLON

Mendan qo'rqar har hayvon,
Chunki men mard arslon.
Xolim bor dona - dona,
Qudratdaman yagona.

BEDANA

Odatim bor chatoqroq,
Sayrayman tinmay jo'shib.
Shunda ovchi to'riga,
Qolgum to'satdan tushib.



KAKLIK

Tog' bag'ri menga makon,
U yerda saqlayman jon.
Aslinga yaxshilab boq,
Top-chi, sen meni o'rtoq?!

CHUMCHUQ

Jussam nozik va lekin,
Foydam o'n, zararim qirq.
Bir kuyni bilgum faqat,
U ham bo'lsa chirqu-chirq.



CHUMOLI

Mehnatda gap ko'p juda,
Sizga haq so'z aytaman.
Qayga bormay, uyimga
Don-dun topib qaytaman.

XO'ROZ

Dumi o'roq xo'rozman,
Toji taroq xo'rozman.
Qichqiraman saharlab,
Bobo quyoshni chorlab.




QALDIRG'OCH

Chug'ur-chug'urlab dilga,
Shodonlik baxsh etaman.
Bahorda kelib elga,
Kech kuz qaytib ketaman.



BURGUT

Ko'zlarim yonar yal-yal,
Keltirgum yovga ajal.
Tanlamayman o'ljani,
Aniq bo'lsa bas mo'ljal.



O'RDAK

Bilsangiz, nomim o'rdak,
Qilmang ko'p mazaxo'rak.
Yo'q bo'lsa sersuv maskan,
Menga boshpana ko'lماك.

QARG'A

Qag'illayman, qor deyman,
Qishning g'amini yeyman.
Zavqlanaman yog'sa qor,
Qish menga go'yo bahor.




OLMAXON

O'ynayman chaqib yong'oq,
«Hunar»im shudir har choq.
Daraxt shoxi sinmasin,
Yiqilsam, holim chatoq.

AYIQ

Kuragi yerga tegmas,
Polvondirman o'rmonda.
Kim meni pisand etmas,
Yakson bo'lar shu onda.



BALIQ

Suvda suzmoq odatim,
Bu mening uchun huzur.
Kelar faqat omadim,
Uchrasa gar teshik to'r.

TOVUQ

Naslim zotdor, har kuni,
Qo'yaman ikkita tuxum.
Bundan egam ko'p xursand,
Berar ikki mahal yem.



TOVUS

Chiroyliman va ko'rkam,
Baho bering o'zingiz.
Dumlarimga bir qarang,
Tovlanaman rang-barang.